

TARIXIY SHAXSLARDAN BIRI MUHAMMAD RAHIMXONNING HAYOTI VA DAVLAT BOSHQARUVI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17850753>

Tilolovov Qorjov

Termiz davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrasi o'qituvchi

Xasanova Nazokat

Akramova Dinora

Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya

G'ayratli va qattiqqo'l siyosatchilardan sanalmish Muhammad Rahimxon I arab, fors tillarini bilgan. Ilm ahliga homiylik qilgan. Olim, shoir va donishmandlar bilan suhbatlar o'tkazib turgan. Eltuzarxon davrida boshlangan „Firdavs-ul-iqbol“ asarini davom ettirishga sharoit yaratib bergan. 1813-yil Munisga „Ravzat-us safo“ asarini tarjimasini topshirgan. Mamlakatda bir qancha kanallar qazdirib obodonlashtirishga e'tibor bergan. Arkda zarbxona tashkil qilib, oltin va kumush tangalar chiqargan. Muhammad Rahimxon I davrida ichkilik va bangilik ta'qiqlangan. Muhammad Rahimxon Pahlavon Mahmud maqbarasini qaytadan qurdirgan.

Kalit so'zla

Muhammad Rahimxon Zarbxona Ravzat - us safo Pahlavon Mahmud Kumush tanga Ulug' olim Obodonlashtirish Eltuzarxon Munis

Muhammad Rahimxonning Hayoti

Muhammad Rahimxon I 1775-yilda Xiva shahrida Muhammad Avaz inoq oilasida dunyoga kelgan. Yoshligidan yaxshi ta'lim olgan, fors va arab tillarini bilgan. 1806-yilda Buxoro amirligiga qarshi olib borilgan yurishda akasi Eltuzarxon (1804–1806)ning fojiali vafot etishi natijasida Xiva xonligi taxtiga Muhammad Rahimxon I o'tiradi. Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida bobosi Muhammad Amin inoq boshlagan Xiva xonligidagi xalqlarni birlashtirish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Uning hukmronligi 1806-yildan 1825-yilgacha davom etadi. Shu yili Xivada vafot etadi. Muhammad Rahimxon I o'zi qurdirgan Pahlavon Mahmud maqbarasi katta xonaqohining to'riga dafn etilgan.

Davlat boshqaruvidagi ichki siyosati

Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini birlashtirishda ijobiy natijalarga erishgan. Bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar o'tkazgan. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash

(Devon) ta'sis etilgan. Muhammad Rahimxon I davrida xonlikda ichimlik ichish, bang chekish qat'iyon taqiqlangan. Bu qoidani buzgan kishining og'zi qulog'igacha kesilishi to'g'risida farmon chiqarilgan.

Davlat boshqaruvidagi tashqi siyosati

Muhammad Rahimxon I mamlakatni kengaytirish uchun 1808 – 1809-yillarda turkman – chovdurlar ustiga yurish qilgan. Chovdurlar Xiva xoni yurishlaridan keyin, asl vatani bo'lgan Mang'ishloqqa ko'chib o'tishga majbur bo'ladilar. Yorliqabek boshchiligidagi boshqa bir qismi 1810-yilda Xiva xonligi tarkibidagi Xo'jayli hududiga joylashishga ruxsat oladi, ularga ekin yerlari berilgan. Muhammad Rahimxon I Orol bo'yi qoraqalpoqlarini bo'ysundirish uchun bir necha marta yurish qilib, 1811-yilda To'ramurod so'fini yengib xonlikni mustahkamlagan. 1812–1818-yillar davomida Sirdaryo bo'yi qozoqlari va Marvdagi taka turkmanlar ustiga yurish qilib, ularni xonlikka qo'shib olgan. Muhammad Rahimxon I davrida Dashti Qipchoq, Xuroson Xiva xonligiga soliq to'lab turgan. Xonlik hududi janubda Xuroson, shimolda Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlar, sharqda Buxoro amirligiga tutash hududlar, g'arbda Kaspiy dengizi qirg'oqlarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan.

Diplomatik munosabatlar

Muhammad Rahimxon I davrida Rossiya imperiyasi, Usmonlilar imperiyasi va Afg'oniston bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan. Afg'oniston bilan aloqalar ayniqsa do'stona munosabatda bo'lgan, chunki afg'on hukmdori Muhammadshoh (1809–1818) bir muddat Xivada surgunda yashagan. Keyinchalik u yana Afg'oniston hukmdori bo'ladi va xorazmlik savdogarlarga mamlakatda erkin savdo qilishiga ruxsat beradi.

1819–1820-yillarda rus elchisi N. Muravyov (1794–1866) Xivada bo'lib, u o'z sayohati haqida kitob yozgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Xiva xonligining

aholisi uch yuz ming kishini tashkil qilgan. Asosiy aholini o'zbeklar va turkmanlardan iborat bo'lgan.

1820 yilda A. F. Negri boshchiligidagi rus diplomatik missiyasi Xivaga tashrif buyuradi va Muhammad Rahimxon I qabulida bo'ladi

Afg'oniston bilan aloqalar ayniqsa do'stona munosabatda bo'lgan, chunki afg'on hukmdori Muhammadshoh (1809–1818) bir muddat Xivada surgunda yashagan. Keyinchalik u yana Afg'oniston hukmdori bo'ladi va xorazmlik savdogarlarga mamlakatda erkin savdo qilishiga ruxsat beradi.

Madaniy ma'rifiy sohadagi islohotlari

Xivada bir qancha madrasa va masjidlar qurilgan. Ular qatoriga Qutlug'murod Inoq madrasasi, Bog'bonli masjidi va boshqalar kiradi. Bojxona va boshqa muassasalar ishga tushgan. 1815-yilda Muhammad Rahimxon buyrug'i bilan bosma naqshli kumush bilan qoplangan yangi taxt yasaladi. Hozirda u Moskvadagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Muhammad Rahimxon I arab, fors tillarini bilgan. Ilm ahliga homiylik qilgan. Olim, shoir va donishmandlar bilan suhbatlar o'tkazib turgan.

Muniaa Eltuzarxon davrida boshlangan „Firdavs-ul-iqbol“ asarini davom ettirishga sharoit yaratib bergan. 1813-yil Munisga „Ravzat-us safo“ asarini tarjimasini topshirgan. Mamlakatda bir qancha kanallar qazdirib obodonlashtirishga e'tibor bergan. Arkda zarbxona tashkil qilib, oltin va kumush tangalar chiqargan. Muhammad Rahimxon I davrida ichkilik va bangilik ta'qiqlangan. Muhammad Rahimxon Pahlavon Mahmud maqbarasini qaytadan qurdirgan. Xivada bir qancha madrasa va masjidlar qurilgan. Ular qatoriga Qutlug'murod Inoq madrasasi, Bog'bonli masjidi va boshqalar kiradi. Bojxona va boshqa muassasalar ishga tushgan.

Siyosiy faoliyati

Muhammad Rahim – mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan maqsad – markazlashgan davlatni tiklash edi. Muhammad Rahim bu siyosatni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishdi. U barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab, ularga o'zining asl maqsadini, o'z boshqaruv dasturini ma'lum qildi. Lekin davom etayotgan ichki nizolar, urushlar mamlakatni xonavayron qilayotganligi, xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining izdan chiqayotganligi, agar bu jarayonlar bundan buyon ham davom etiladigan bo'lsa, davlat halokati muqarrar ekanligini alohida ta'kidladi. Qaysi mahalliy hukmdor markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, undaylar ayovsiz jazoga tortilishini ogohlantirdi.

Muhammad Rahimxon mustaqillikni da'vo etib yurgan Miyonqol, Nurota, Qo'bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut bekliklarini to'rt yil davomida o'ziga bo'ysundirdi. Ayni paytda u bo'ysunishni istamagan, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi. Masalan, burqut, qipchoq, yetti urug', bahrin, yuz kenagas, saroy va boshqa qabilalarga nisbatan ana shunday siyosat yuritildi.

Muhammad Rahimxonning Yorlig'i

Uning yorlig'ida harbiylar bilan birga harbiy bulmaganlarning ham huquqiy ishlarda unga murojaat qilishlari ham buyurilgan. Harbiylarning alohida ajratib ko'rsatilishi Muhammad Rahimxonning muntazam qo'shni bo'lganini yana bir bor tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Munis, Firdavs-ul-iqbol. T.1952.
2. Muhammad Yusuf Bayoniy, Shajarayi Xorazmshohiy T. 1964.
3. Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. T. 1959.
4. Gulyamov Ya. G. Pamyatniki Xiva T. 1941;
5. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent. 2001.
6. Munis, Firdavs-ul-iqbol, T.1952;
7. Muhammad Yusuf Bayoniy, Shajarayi Xorazmshohiy, T. 1964